XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-aprel VI-67-62-11-0-K/24 Farg‘ona viloyati

Farg‘ona viloyatining Namangan va Andijon viloyatlari bilan ma’muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilash masalalarini qayta ko‘rib chiqish haqida

Ma’lumki, Farg‘ona viloyati ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi viloyat Komissiyasining 2022 yil 14 iyundagi 195/01-49-sonli bayonnomasi bilan Farg‘ona viloyatining Namangan va Andijon viloyatlari bilan ma’muriy-hududiy birliklar chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha ilovalarga muvofiq tasdiqlangan.

Bu bo‘yicha Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022 yil 15 iyundagi VI-45-84-11-0-K/22-sonli qarori qabul qilinib, Farg‘ona viloyati bilan Namangan va Andijon viloyatlarining chegaradosh qismidagi ma’muriy chegaralarining tavsiflari tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023 yil 21 noyabrm kuni “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni hamda mazkur bayonning 20-bandi ijrosini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023 yil 15 dekabrda 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”sining 6 va 7-bandlarida hududiy komissiyalar tomonidan muammoli hududlarda chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha tayyorlangan takliflarni ko‘rib chiqish va qo‘shni hududlar bilan kelishish hamda kelishilgan chegara chizig‘ini tasdiqlash bo‘yicha tegishli Xalq deputatlari Kengashining qarorlarini qabul qilish choralarini ko‘rish topshirig‘i berilgan.

“Yo‘l xaritasi”ning 5-bandi ijrosini bo‘yicha, Kadastr agentligi tomonidan Farg‘ona viloyatining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflari tayyorlanib, Agentlikning 2024 yil 23 yanvardagi 03/08-595-son xati bilan Farg‘ona viloyati hokimligiga ko‘rib chiqish va kelishish uchun taqdim etilgan.

Viloyat hokimligi tomonidan Farg‘ona viloyatining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflari ko‘rib chiqilib, ijobiy xulosa berilgan.

Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi 2024 yil 19 martdagi 01-07/333-son xat bilan xalq deputatlari viloyat Kengashiga murojaat qilib, viloyat kengashining sessiyasida

“Farg‘ona viloyatining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflarini ko‘rib chiqilishida hamda shu munosabat bilan viloyat kengashining 2022 yil 15 iyun kungi VI-45-84-11-0-K/22-sonli qarorining 1-2-ilovalariga tegishli tartibda o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishidaamaliy yordam berilishini so‘ragan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kyengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024 yil 6 fevraldagi 03/08-1076-sonli xati;

- Kadastr agentligi viloyat boshqarmasining 2024 yil 19 martdagi 01-07/333-son xati;

- viloyat ishchi guruhining xulosasi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida “Xalq deputatlari Kengashi, hokim O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qilishi”;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlari) Kengashlari o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy-hududiy tuzilish masalalariga doir qarorlar qabul qilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Farg‘ona viloyati ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasining (keyingi o‘rinlarda – Komissiya deb yuritiladi) “Farg‘ona viloyatining Namangan va Andijon viloyatlari bilan ma’muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Komissiya bayoni bilan Farg‘ona viloyatining Namangan va Andijon viloyatlari bilan ma’muriy-hududiy birliklar chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha 1-2-ilovalarga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

5. Quyidagilar:

Farg‘ona viloyati ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining chizmasi 1-ilovaga muvofiq

Farg‘ona viloyati ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining tavsifi 2-ilovaga muvofiq ma’qullansin

6. Shunga ko‘ra, Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022 yil 15 iyun kungi VI-45-84-11-0-K/22-sonli qarorining 1- va 2-ilovalari mazkur kengash qarorining1- va 2-ilovalariga muvofiq yangi tahrirda bayon etilsin.

7. Viloyat komissiyasi (X.Sirojitdinov va X.Isaqov):

bir xafta muddatda Andijon va Namangan viloyatlarining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni

muvofiqlashtiruvchi komissiyalari bilan birgalikda ma’muriy-hududiy birliklar chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari yuzasidan kelishuv ishlarini amlaga oshirsin;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan viloyat yoki tuman bo‘ysunuvidagi shaharlarning, viloyatlar tumanlarining, Toshkent shahri tumanlarining va viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar chegaralarini o‘zgartirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tegishli viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining iltimosnomalari asosida amalga oshirilishi belgilanganligini inobatga olib, bir xafta muddatda tegishli hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli qarori qabul qilinganda hamda ma’muriy-hududiy birliklar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandagina (Ma’muriy-hududiy birliklar davlat reyestriga kiritilganda) Farg‘ona viloyatining Namangan va Andijon viloyatlari bilan ma’muriy-hududiy birliklar chegarasi belgilangan deb hisoblansin.


9. Mazkur Kengash qarori ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi B.Raxmonov hamda viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Sirojitdinov va X.Isaqovlar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi BOZAROV XAYRULLO XAYITBAYEVICH

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining
2024-yil 26-apreldagi
VI-67-62-11-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Farg'ona viloyati ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining
CHIZMASI

Xalq deputatlari
viloyat kengashining
2024 yil "___"_____dagi
_____- sonli qaroriga __1__ilova



Shartli belgilar

Farg'ona viloyatining chegarasi va yer maydoni

1 *Farg'ona viloyati chegarasining burilish nuqtasi va raqami*

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2024-yil 26-apreldagi
VI-67-62-11-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Farg‘ona viloyati ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining
T A V S I F I

“___“ _____20___ yil. Farg‘ona shahri

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan, Farg‘ona viloyatining Namangan, Andijon viloyatlari bilan chegaradosh qismidagi ma’muriy chegarasini belgilash bo‘yicha tavsifi ishlab chiqildi.

Farg‘ona viloyatining Namangan viloyati bilan chegaralarini belgilashda boshlang‘ich nuqta qilib, Tojikiston Respublikasi va Farg‘ona va Namangan viloyatlari chegara chizig‘ining tutashgan joyi boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 kordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatlari 40°43'12,675", sharqiy uzoqlik koordinatlari 70° 47' 49,003").*

Namangan viloyati yerlari bilan 1– 14 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara to‘g‘ri chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda 154 metr masofada Sirdaryo daryosini kesib o‘tib, keyin Sirdaryo daryosining o‘ng qirg‘og‘iga tutashadi, keyin sharqiy yo‘nalishda daryoning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1072 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1335 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 694 metr va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 220 metr masofani o‘tib, daryo ko‘prigining chap tomonida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'52,192", sharqiy uzunlik 70° 49' 52,630")*

2-nuqtadan chegara to‘g‘ri chizig‘i orqali daryo ko‘prigini kesib o‘tib, sharqiy yo‘nalishda daryoning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda 193 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 567 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 794 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 760 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 720 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 1056 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 782 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1042 metr masofani o‘tib, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 48 metr masofada Shimoliy Bag‘dod kanalini kesib o‘tadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda daryoning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 199

metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'18,103", sharqiy uzunlik 70°53'41,251")*

3-nuqtadan chegara to‘g‘ri chizig‘i orqali avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 425 metr masofani o‘tib, zovur bilan tutashadi va chegara to‘g‘ri chizig‘i orqali zovurni kesib o‘tib, shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1161 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1136 metr masofani o‘tib, so‘ng umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 837 metr masofani o‘tib, daryo bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45'36,439", sharqiy uzunlik 70° 55' 21,803")*

4-nuqtadan chegara quruq chizig‘i orqali Sirdaryo daryosini tark etib, janubiy-sharqiy yo‘nalishda 28 metr masofani o‘tib, dala yo‘liga tutashadi, keyin dala yo‘lining janub tomonidan sharqiy yo‘nalishda 20 metr masofani o‘tadi va dala tuproq yo‘lidan ichki zovurga tutashadi, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 862 metr masofani o‘tib, Qorakalpoq zovuriga tutashadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Qorakalpoq zovurining suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 206 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 924 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 55 metr va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 42 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 509 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 89 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 354 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 45' 31,534", sharqiy uzunlik 70° 56' 45,704")*

5-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Qorakalpoq zovurining suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 52 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 292 metr, so‘ngra umumiy sharqiy yo‘nalishda 1097 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1212 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 451 metr masofani o‘tib, zovurga tutashadi va janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 188 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 254 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 122 metr, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 332 metr va janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 226 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 200 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 136 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘lining shimol tomonida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 44' 18,246", sharqiy uzunlik 70° 58' 36,391")*

6-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 4494 metr masofani o‘tadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida 62 metr masofada avtomobil yo‘lni, kanalni kesib o‘tib zovurga tutashadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 567 metr masofani o‘tib, beton kanali bo‘yida 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 44' 50,088", sharqiy uzunlik 71° 01' 47,938") tutashadi.*

7-**nuqtadan** chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda beton kanalning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 203 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 874 metr masofani o‘tib, beton kanaldan zovurga tutashadi, keyin shimoliy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 103 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 852 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 546 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 456 metr va sharqiy yo‘nalishda 483 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 392 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 428 metr masofada avtomobil yo‘li bilan tutashadi, chegara to‘g‘ri chizig‘i orqali avtomobilni kesib o‘tib, zovur bilan tutashadi va chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovur suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 139 metr, janubiy-sharqiy yo‘nalishda 77 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 337 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 597 metr va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1073 metr masofada dambaga o‘tadi, chegara chizig‘i dambaning barcha burilishlarini hisobga olgan holda sharqiy yo‘nalishda 122 metr masofani o‘tib temir yo‘l dambasiga tutashadi, so‘ng chegara quruq chizig‘i orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 22 metr masofada temir yo‘lni kesib o‘tib, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45'38,841", sharqiy uzunlik 71°05'53,295")*

8-nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lning chap tomoni bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 6652 metr masofani o‘tib, temir yo‘lning Achchiqko‘l zovuri bilan kesishgan joydagi 9-nuqtaga *(shimoliy kenglik 40° 42' 26,936", sharqiy uzunlik 71° 03' 44,585")*

9-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Achchiqko‘l zovurining suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 374 metr masofada avtomobil va Achchikko‘l zovurini kesib o‘tib, zovurning o‘ng qirg‘og‘iga tutashadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Achchiqko‘l zovurining suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 294 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 3970 metr masofani o‘tib, Achchiqko‘l zovuri va ichki zovur qo‘shilish joyiga tutashadi va zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 276 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 8125 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 285 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 6190 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 38' 36,061", sharqiy uzunlik 71° 16' 14,472")*

10-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan, quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 60 metr o‘tib, beton kanali bilan tutashadi, keyin chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda beton kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2764 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bilan tutashadi va avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda beton kanalni o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 77 metr masofada kanalning chap tomondagi

dyukeriga tutashadi, so‘ngra quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 56 metr masofada zovurni kesib o‘tib, beton kanalning o‘ng tomondagi dyukeriga tutashadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda beton kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 4831 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 846 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1104 metr va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 602 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 300 metr masofani o‘tib, beton kanali bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 41′ 38,898″, sharqiy uzunlik 71° 22′ 20,351″)*

11-nuqtadan chegara to‘g‘ri chizig‘i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 28 metr masofada beton kanali va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, keyin chegara quruq chizig‘i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 82 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 31 metr masofani o‘tib, zovur bilan tutashadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1456 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga *(shimoliy kenglik 40° 41′ 54,959″, sharqiy uzunlik 71°23′23,552″)*

12-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 53 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 1077 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1872 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 587 metr va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1931 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1334 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1090 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 784 metr va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 652 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 447 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 310 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 192 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 44′ 20,641″, sharqiy uzunlik 71° 29′ 15,975″)*

13-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 796 metr masofani o‘tadi va quruq chegara chizig‘i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 18 metr masofada zovurni kesib o‘tib, Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlarining chegara chiziqlari kesishgan joy G‘arbiy Yozyovon zovuri bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 44′05,313″, sharqiy uzunlik 71° 29′ 43,312″*

Andijon viloyati yerlari bilan 14– 31 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

14-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda G‘arbiy Yozyovon zovurining suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 3064 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1251 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42′47,474″, sharqiy uzunlik 71° 32′ 13,269″)*

15-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda G‘arbiy Yozyovon zovurining suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 7682 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgna 16-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40° 39′ 11,683″, sharqiy uzunlik 71°34′45,777″)*

16-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda G‘arbiy Yozyovon zovurining suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2610 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 40°37′50,076″, sharqiy uzunlik 71°35′13,413″)*

17-nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan, quruq chizig‘i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 58 metr masofa dala yo‘lini kesib o‘tib, beton ariq bilan tutashadi, keyin beton ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 4134 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘lini bilan tutashadi, keyin yo‘lning janub tomonidan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 109 metr masofani o‘tib, so‘ngra quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 36 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin dala tuproq yo‘lining janub tomonidan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 559 metr masofadan keyin, zovurdan quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 28 metr masofani o‘tib, zovur bilan tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1022 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 133 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. (shimoliy *kenglik 40° 39′ 58,432″, sharqiy uzunlik 71° 38′ 14,835″)*

18-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2929 metr masofada beton ariqqa o‘tadi va beton ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 28 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘liga tutashadi, keyin avtomobil yo‘lidan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va dala yo‘lining janub tomonidan umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 180 metr masofadan keyin chegara quruq chegara chizig‘i orqali sharqiy yo‘nalishda 51 metr masofani o‘tib, Oqoltin zovuri bilan tutashadi va zovurining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 651 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1507 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 615 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik *40° 42′ 49,335″,* sharqiy uzunlik *71° 37′ 55,318″)*

19-nuqtadan chegara chizig‘i Oqoltin zovurining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 234 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 802 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1311 metr, keyin zovurni chap tomonidan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 919 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 551 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 947 metr masofani o‘tib, Yozyovon

zovuri bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. (shimoliy *kenglik 40° 44′ 49,248″, sharqiy uzunlik 71° 39′ 16,548″)*

20-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda Yozyovon zovurining suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 3220 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 373 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 565 metr masofani o‘tib, Shimoliy zovur bilan tutashadi, keyin sharqiy yo‘nalishda Shimoliy zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1433 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 42′ 57,312″, sharqiy uzunlik 71° 41′ 51,202″)*

21-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy yo‘nalishda avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin Shimoliy zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1007 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1836 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 517 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1113 metr va janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1161 metr masofani o‘tib zovurning chap tomonidagi dyukeriga tutashadi, keyin chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 96 metr masofada avtomobil yo‘lini, Andijon kanalini kesib o‘tib zovurning o‘ng dyukeriga tutashadi, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda Shimoliy zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1388 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3719 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 638 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan
22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°40′47,280″, sharqiy uzunlik 71°48′51,144″)*

22-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda Shimoliy zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1329 metr masofani o‘tib zovur dyukeriga tutashadi, keyin chegara to‘g‘ri chizig‘i orqali 29 metr masofada A-373-Avtomobil yo‘lini kesib o‘tib zovur dyukeriga tutashadi, keyin chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Shimoliy zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2086 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1371 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 38′ 51,953″, sharqiy uzunlik 71° 50′ 28,374″)*

23-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda Shimoliy zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1358 metr, sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 4722 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 2138 metr masofani o‘tib, ariq bilan tutashadi, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 170 metr masofani o‘tib, Sariqjo‘ga zovuri bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 37′ 21,667″, sharqiy uzunlik 71° 55′ 51,597″)*

24-nuqtadan chegara to‘g‘ri chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 44 metr masofada Sarijuga zovurini kesib o‘tib, Naynova zovuri bilan tutashadi, keyin sharqiy yo‘nalishda Naynova zovurining suv oqimiga qarshi chap tomonidan

barcha burilishlarini hisobga olgan holda 3492 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1519 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 37′ 0,709″, sharqiy uzunlik 71° 59′ 12,159″)*

25-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 451 metr masofani o‘tib, ariq bilan tutashadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 197 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 970 metr masofani o‘tib, Katta Farg‘ona kanali bilan tutashadi, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 54 metr masofada Katta Farg‘ona kanalini kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40° 36′ 21,564″, sharqiy uzunlik 71° 59′ 48,091″)*

26-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Katta Farg‘ona kanalining o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab suv oqimiga qarshi 1535 metr masofada Naynova zovuri bilan tutashadi, keyin Naynova zovurining o‘ng qirg‘og‘i bilan tutashadi va zovurning barcha burilishlarini hisobga olgan holda sharqiy yo‘nalishda 4521 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1262 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga *(shimoliy kenglik 40°36′54,999″, sharqiy uzunlik 72°04′08,679″)*

27-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 505 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 105 metr masofada avtomobil yo‘lni kesib o‘tib, keyin zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 128 metr masofada ariq bilan tutashadi, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 283 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 299 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 963 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 205 metr masofani o‘tib zovurga tutashadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan burilishlarini hisobga olgan holda 2529 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 466 metr masofada dala tuproq yo‘li va zovurni kesib o‘tib, zovur bilan tutashadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 76 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 771 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 458 metr masofada dala tuproq yo‘li, zovurni kesib o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 35′ 11,893″, sharqiy uzunlik 72° 06′ 40,475″)*

28-nuqtadan chegara quruq chizig‘i orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 9 metr masofada temir yo‘lni kesib o‘tib zovurga tutashadi, keyin umumiy sharq yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1678 metr masofada ariqqa o‘tadi, so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nlishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 671 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasidan shimoliy yunalishida 151 metr, so‘ngra

sharqiy yo‘nalishda 122 metr masofani o‘tib qishloq ichki yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lining sharq tomonidan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 34 metr, so‘ngra yo‘lning shimol tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 135 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, zovur bilan tutashadi, keyin sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 232 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 104 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 328 metr masofada ariq bilan tutashadi, keyin janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 318 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 297 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan 607 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lining shimol tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishini 261 metr masofada yo‘lni kesib o‘tib, zovur bilan tutashadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 345 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 445 metr, so‘ngra umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 696 metr masofada ariqqa o‘tadi, keyin ariqning suv oqimga qarshi chap tomonidan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 835 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 120 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 98 metr masofada avtomobil yo‘liga o‘tadi, keyin avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘lning janub tomonidan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 182 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 34' 05,230", sharqiy uzunlik 72° 09' 17,761") tutashadi.*

29-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lning g‘arb tomonidan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 819 metr masofada zovurga o‘tadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1149 metr masofada qishloq ichki yo‘li bilan tutashadi va yo‘lning janub tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 68 metr masofadan keyin chegara quruq chizig‘i orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 236 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lining shimol tomonidan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 168 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi, keyin umumiy jaunbiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2494 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 1067 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 404 metr masofani o‘tib dala yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lining janub tomonidan sharqiy yo‘nalishda 489 metr masofani o‘tib, ariq bilan tutashadi, keyin sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 631 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 32' 47,407", sharqiy uzunlik 72° 12' 46,200")*

30–nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomonidan janubiy yo‘nalishda 298 metr masofada ariqqa tutashadi, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishida ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilitshlarini hisobga olgan holda 192 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida 338 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 97 metr,

so‘ngra umumiy janubiy yo‘nalishda 115 metr masofada beton ariqqa o‘tadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda beton ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 265 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1487 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 381 metr va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 142 metr masofani o‘tib, keyin chegara quruq chizig‘i orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 114 metr masofani o‘tib, keyin beton ariqning suv oqimga qarshi janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 42 metr masofani o‘tadi va quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 74 metr masofani o‘tib quruq soyga tutashadi, keyin chegara chizig‘i umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda quruq soyning barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2526 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 652 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib dala yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lining janub tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 219 metr masofada ariqqa o‘tadi, so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 132 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 126 metr masofani o‘tadi va chegara quruq chizig‘i orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 53 metr masofani o‘tib dala yo‘liga tutashadi, so‘ngra yo‘lining g‘arb tomonidan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 214 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi, keyin ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan janubiy yo‘nalishda 180 metr, janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 185 metr masofani o‘tadi, keyin chegara quruq chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishida 265 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, dambaga tutashadi, keyin damba bo‘ylab burilishlarini hisobga olgan holda janubiy yo‘nalishida 357 metr masofani o‘tib, Qirg‘iziston Respublikasi va Farg‘ona va Andijon viloyatlari chegara chiziqlari kesishgan joydagi 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 29′ 32,483″, sharqiy uzunlik 72° 10′ 24,448″*")

Qirg‘iziston Respublikasi yerlari bilan 31 – 32 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

31-nuqtadan 32-nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi. *(shimoliy kenglik 40° 13′ 14,008″, sharqiy uzoqlik 70° 56′ 58,164″).*

Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 32 – 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

32-nuqtadan 1-nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi. *(shimoliy kenglik 40° 43′ 12,675″, sharqiy uzoqlik 70° 47′ 49,003″).*